


2018 yil yanvar-dekabr oylarida xizmatlar sohasining rivojlanishi

Hozirgi vaqtda xizmatlar sohasi rivojlangan mamlakatlar iqtisodiyotida hal qiluvchi rol o'ynaydi. O'zbekistonda uchlamchi sektor, ba'zan xizmatlar sohasi shunday ataladi, mamlakat iqtisodiyotining jadal rivojlanayotgan tarmoqlaridan biri hisoblanadi.

2019 yil 1 yanvar holatiga ko'ra, 20,9 mingdan ortiq faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlardan, xizmatlar sohasida 13,2 mingga yaqin korxonalar va tashkilotlar jalb qilingan.


2019 yil 1 yanvar holatiga korxonalar va tashkilotlarning umumiy sonida xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning ulushi, % (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Xizmat ko'rsatuvchi tashkilotlar va korxonalar umumiy sonining 8,6 mingga yaqin korxonalar va tashkilotlar kichik biznes sub'ektlarini

tashkil etadi. 2019 yil 1 yanvar holatiga ko'ra, ularning ulushi 65,2 % tashkil etdi.

**2019 yil 1 yanvar holatiga xizmatlar sohasiga jalb qilingan,
kichik korxonalar va mikrofirmalarning ulushi, %**



2019 yil 1 yanvar holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar tarkibida savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxonalar va tashkilotlar ulushi (36,1 %) yuqori.


Yaqin va uzoq xorij mamlakatlar bilan, shuningdek turizm sohasida o'zaro hamkorlikni rivojlantirish, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarini ko'rsatuvchi korxonalar va tashkilotlar sonining o'sishiga ta'sir ko'rsatdi. Ularning ulushi 6,5 % ni tashkil etdi.

Tashish va saqlash faoliyati bilan shug'ullanuvchi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning xizmat ko'rsatish sohasidagi korxonalar va tashkilotlar umumiy sonidagi ulushi 5,8 % ni tashkil etdi.

Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida xizmat ko'rsatuvchi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning ulushi 3,7 % ni tashkil etdi.

2018 yil 1 yanvar holatiga xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha tarkibi, %

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)




Axborot va aloqa xizmatlari sohasida xizmatlar ko'rsatuvchi korxonalar va tashkilotlarning ulushi 1,8 % ni tashkil etdi.

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2018 yil yanvar-dekabr oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 6975,9 mlrd. so'mga teng bo'ldi. O'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 107,2 % ni tashkil etdi.


Ko'rsatilgan bozor xizmatlarning tarkibida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlaganda bo'lgan savdo xizmatlariga (33,5 %), transport xizmatlariga (23,1 %), moliyaviy xizmatlarga (11,3 %), aloqa va axborotlashtirish xizmatlariga (6,1 %) yuqori ulushlar ketme-ketligi kuzatildi.

2018 yil yanvar-dekabr oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari tarkibi, %



2018 yil yanvar-dekabr oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi o'tgan yilga nisbatan 1,1 trln. so'mga oshdi. Joriy yilning oldingi (2018 yil yanvar-noyabr oylari) davriga nisbatan xizmatlar hajmi 0,6 trln. so'mga ko'paydi.

2018 yilda ayrim xizmat turlari hajmining taqqoslanishi, mlrd. so'm



Joriy yilning oldingi davriga nisbatan ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmining o'sishiga savdo xizmatlari (204,5 mlrd. so'mga), transport xizmatlari (157,4 mlrd. so'mga), moliyaviy xizmatlar (81,4 mlrd. so'mga) hamda aloqa va axborotlashtirish (37,7 mlrd. so'mga) kabi xizmatlar hajmining oshishi asosiy omillardan biri hisoblanadi.


Ma'lumot uchun: 2017 yilning mos davrida savdo xizmatlari – 411,6 mlrd. so'm, transport xizmatlari – 100,5 mlrd. so'm, moliyaviy xizmatlar – 233,3 mlrd. so'm, aloqa va axborotlashtirish xizmatlari – 53,3 mlrd. so'mga oshgan.

2018 yil yanvar-dekabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ishlab chiqarilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari

	Hajmi, mlrd. so'm	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, %
Xizmatlar - jami	6975,9	107,2
shu jumladan:		
aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	426,1	112,9
moliyaviy xizmatlar	787,4	127,3
transport xizmatlari	1608,9	102,9
shu jumladan: avtotransport xizmatlari	1534,7	101,7
yashash va ovqatlanish xizmatlari	220,8	106,4
savdo xizmatlari	2337,0	102,4
ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	226,9	101,6
ta'lim sohasidagi xizmatlar	227,8	127,6
sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	75,0	109,1
ijara xizmatlari	197,7	111,4
kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	256,5	102,3
shaxsiy xizmatlar	262,9	102,2
me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	76,7	138,2
boshqa xizmatlar	272,2	109,0

Eng yuqori o'sish sur'atlari me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar (138,2 %), ta'lim sohasidagi xizmatlar (127,6 %) moliyaviy xizmatlar (127,3 %), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (112,9 %), ijara xizmatlari (111,4 %) kabi xizmat turlarida qayd etildi.


2018 yil yanvar-dekabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'ati, %



Nisbatan pastroq o'sish sur'atlari ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar (101,6 %), shaxsiy xizmatlar (102,2 %) va kompyuterlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar (102,3 %) kabi xizmat turlarida kuzatildi.

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmining uchdan bir qismidan ko'proq savdo xizmatlarini tashkil etdi. 2018 yil yanvar-dekabr oylarida uning ulushi 33,5 % ni tashkil etdi. Shu bilan birga, eng yuqori ulushlarni transport xizmatlari (23,1 %), moliyaviy xizmatlar (11,3 %), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (6,1 %) egallaydi.

2018 yil yanvar-dekabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xizmatlar tarkibi




2018 yil yanvar-dekabr oylarida savdo xizmatlari hajmi 2337,0 mlrd.so'mga teng bo'ldi. Ko'rsatilgan xizmatlar umumiy hajmidagi

ulushi 33,5 % ni tashkil etdi.

O'tgan yilning shu davriga nisbatan savdo xizmatlarining hajmi 411,6 mlrd.so'mga oshdi.

Aholining daromadlari darajasining oshishi bilan iste'mol talabi va savdo aylanmasi o'smoqda.

Savdo xizmatlari tarkibida avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo bo'yicha xizmatlar katta salmoqqa ega. 2018 yil yanvar-dekabr oylarida uning ulushi 81,8 % ni tashkil etadi.



Ulgurji savdo bo'yicha xizmatlarining (avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari) ulushi 12,9 % ga yetdi.

Avtomobillar va mototsikllarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlarni qo'shgan holda avtomobillar va mototsikllar ulgurji va chakana savdosi bo'yicha xizmatlar umumiy savdo xizmatlari hajmida 5,3 % ni egallaydi.


Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish fuqarolik jamiyatida va bozor iqtisodiyotida yuz beradigan jarayonlarga ijobiy ta'sir ko'rsatish uchun zarur.

Hayotning ko'pgina sohalarida AKT joriy etilishi va rivojlanishi jamiyat, hukumat va biznes bilan bog'liq ko'plab tashqi va ichki jarayonlarni soddalashtirish va tezlashtiradigan muhim element hisoblanadi.

2018 yil yanvar-dekabr oylarida aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining hajmi 426,1 mlrd. so'mni tashkil etdi. Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari o'sishi 12,9 % ni tashkil etdi.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmida telekommunikatsiya xizmatlari (simli va mobil aloqa xizmatlari, Internet tarmog'i, yo'ldoshli aloqa xizmatlari va boshqalar) katta qismni egallab, uning ulushi 97,1 % ni tashkil etadi.


2018 yil yanvar-dekabr oylarida aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining tarkibi, %



Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasiga investitsiyalarni ko'paytirish butun dunyoda raqamli o'zgarishni boshqaradi va ko'plab odamlar AKT xizmatlari, xususan, mobil aloqa va Internet tarmog'idan foydalanish imkoniyatini yaratadi.

Bugungi kunda, mobil aloqa xizmatlaridan ko'proq aholi (jismoniy shaxslar) foydalanishadi. Ularning ulushi - 97,5% ni tashkil qiladi. Mobil aloqa xizmatlaridan foydalanishda yuridik shaxslarning ulushi 2,5 % ni tashkil etadi.

Mobil aloqa abonentlari tarkibi, %




Valyuta siyosatini erkinlashtirish, istiqbolli investitsiya loyihalarini kreditlash ko'lamini kengaytirish, shuningdek, moliyaviy tashkilotlar tomonidan innovatsion xizmatlar ko'rsatish bo'yicha amalga oshirilgan islohotlar moliyaviy xizmatlar hajmini oshishiga ta'sir ko'rsatdi.

2018 yil yanvar-dekabr oylarida moliyaviy xizmatlar hajmi 787,4 mlrd. so'mga teng bo'lib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati esa 127,3 % ni tashkil etdi.

Moliyaviy xizmatlarning eng katta qismini pul-kredit sohasidagi vositachilik bo'yicha xizmatlar (91,6%) tashkil etadi.

2018 yil yanvar-dekabr oylarida moliyaviy xizmatlarning tarkibi, %




Bugungi kunda o'quv jarayonini sifatli va samaradorligini oshirishning muhim omili sifatida maktablarni zamonaviy avtomatlashtirilgan laboratoriya uskunalari, kompyuter texnikasi, darsliklar va yangi avlod darsliklari bilan ta'minlashga alohida e'tibor qaratilmoqda.

2018 yil yanvar-dekabr oylarida ta'lim sohasidagi xizmatlar hajmi 227,8 mlrd. so'mga teng bo'ldi. O'tgan yilga nisbatan o'sish 27,6 % tashkil etdi.

Ushbu davrda yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar hajmi 220,8 mlrd. so'mga teng bo'ldi. 2017 yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan o'sish sur'atlari 106,4 % ni tashkil etdi. Ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning ulushi 3,2 % ga yetdi.

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar tarkibi, %



Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar hajmida oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar 88,7 % ulush bilan yetakchilik qilmoqda. Yashash bo'yicha xizmatlar ulushi 11,3 % ga to'g'ri keladi.

2017 yil yanvar-dekabr oylari bilan taqqoslaganda yashash bo'yicha xizmatlar ulushining ko'payish omillaridan biri respublikada turizm faoliyatni rivojlantirish hisoblanadi. Jahonga mashhur tarixiy yodgorliklar,

zamonaviy shaharlar, O'zbekistonning betakror tabiati, noyob milliy taomlari, shuningdek, xalqimizning betakror mehmondo'stligi sayohatchilarni o'ziga jalb qiladi.


**2018 yil yanvar-dekabr oylarida hududlar bo'yicha
xizmatlar ishlab chiqarish hajmi**

	Hajmi, mlrd.so'm	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, % da
Qashqadaryo viloyat	6975,9	107,2
Qarshi sh.	3724,3	110,8
Shahrisabz sh.	210,3	106,3
G'uzor	238,6	101,3
Dehqonobod	142,1	102,5
Qamashi	224,1	103,8
Qarshi	237,1	101,7
Koson	371,4	103,0
Kitob	303,3	106,2
Mirishkor	111,9	103,9
Muborak	276,7	104,5
Nishon	169,8	103,2
Kasbi	132,6	101,1
Chiroqchi	266,6	104,0
Shahrisabz	316,2	102,2
Yakkabog'	250,9	102,7

Hududlar o'rtasida eng katta hajm Qarshi shahri (3724,3 mlrd.so'm), Koson (371,4 mlrd.so'm), Shahrisabz (316,2 mlrd.so'm), Kitob (303,3 mlrd.so'm) tumanlariga to'g'ri keladi.

Eng kam hajm Mirishkor (111,9 mlrd.so'm), Kasbi (132,6 mlrd.so'm), Dehqonobod (142,1 mlrd.so'm) tumanlarida kuzatilmoqda.

2018 yil yanvar-dekabr oylarida hududlar bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'ati, %




Yuqori bo'lmagan o'sish sur'atlari Kasbi (101,1 %), G'uzor (101,3 %), Qarshi (101,7 %) va Shahrisabz (102,2 %) tumanlarida kuzatildi.

Zamonaviy O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish istiqbollari milliy va mahalliy manfaatlarni hisobga olgan holda respublikaning har bir

iqtisodiy salohiyati tuman va viloyatlarining barcha resurslaridan oqilona foydalanishiga bog'liqdir.

2018 yil yanvar-dekabr oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmida hududlarning ulushi, %



Hududlar o'rtasida xizmatlar umumiy hajmida eng katta ulushni Qarshi shahri (53,4 %), Koson (5,3 %), Shahrisabz (4,5 %), Kitob (4,4 %) va Muborak (4,0 %) tumanlari egallaydi.

Hududlar o'rtasida eng kam ulush Mirishkor (1,6 %), Kasbi (1,9 %), Dehqonobod (2,1 %) va Nishon (2,4 %) tumanlari to'g'ri keladi.

Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlar hajmining har chorakda o'sishi kuzatilmoqda. 2018 yil yanvar-sentyabr oylariga nisbatan hajm 610,1 ming so'mga oshib, 2193,1 ming so'mga teng bo'ldi. O'tgan yilning shu davriga nisbatan 314,0 ming so'mga farq qildi.


Hududlar orasida bu ko'rsatkich Qarshi shahrida 13824,5 ming so'mdan, Chiroqchi tumanida 675,2 ming so'mgacha oralig'ida farq qildi. Chiroqchi tumanida aholi jon boshiga ko'rsatkichi nisbatan pastligi, ushbu hududdagi aholining ko'pligi bilan bog'liq. Taqqoslash uchun, Muborak tumanida aholi soni juda oz, biroq aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlar hajmi nisbatan yuqori. U 3297,7 ming so'mga teng.

Aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlarning maksimal o'sishi Qarshi shahrida (9,4 %), Shahrisabz shahrida (4,4 %), Kitob (4,2 %) va Muborak (2,7 %) tumanlarida kuzatildi.

Uncha yuqori bo'lmagan o'sish sur'atlari Dehqonobod (100,3%), Shahrisabz (100,5 %), Nishon (100,6 %) va Koson (100,9 %) tumanlarida qayd etildi.

Aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlarning kamayish sur'ati Kasbi (99,2 %), G'uzor va Dehqonobod mos ravishda (99,6 %) tumanlarida qayd etildi.

2018 yil yanvar-dekabr oylarida hududlar bo'yicha aholi jon boshiga ko'rsatkichlar



Xizmatlar sohasi statistikasi bo'limi

75-221-44-32

71-230-84-03